

**AHOLIGA IJTIMOYIY XIZMAT KO'RSATISHDA NODAVLAT NOTIJORAT
TASHKILOTLARINING O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10308202>

G'.Xolmurodov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi

Ch.Alimova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanish jarayonlarining tahlili, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining o'zaro a'loqasi, nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasining mohiyati, ularning asosiy vazifalari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *nodavlat notijorat tashkiloti, qizil hoj tashkiloti, ijtimoiy yordam akti, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, Xalqaro qizil yarim oy jamiyati, Chegara bilmas shifokorlar, Qutqaruv armiyasi.*

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish davomida biz aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayonida davlat bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati yuqoriligini o'rinda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarining ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalashda davlat organlarining ishtiroki minimal darajaga tushirilgan bo'lib, nodavlat sektori faoliyati birinchi darajaga ko'tarilgan. Davlat nodavlat sektorini ijtimoiy xizmatlar sohasidagi faolyatini faqat moliyalashtirishda ko'mak beradi. Xususiyl tadbirkorlar, kompaniyalar, biznes tuzilmalar nodavlat sektorini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan mablag'lari moliyalashtirishning salmoqli qismini tashkil etadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xalqaro maqomga ega ko'plab nodavlat tashkilotlar mavjud. Masalan Xalqaro qizil hoj, Xalqaro qizil yarim oy jamiyati, Chegara bilmas shifokorlar, Qutqaruv armiyasi va hokazolar. Ular aholiga xizmat ko'rsatishda mustaqil moddiy resurslardan foydalanilar. Xizmat sifatini oshirishga qaratilgan yangi innovatsion g'oyalar va mexanizmlarini joriy qiladilar.

Shu bilan birga nodavlat tashkilotlari kuchli faoliyat tizimi va tarmoqlarga egaligi bilan ajiralib turadi. Qizil hoj tashkiloti ko'p bosqichli murakkab tuzilmaga ega. Uning qaramog'ida ko'plab ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muassasalar mavjud. Masalan, kasalxonlar, internat, maxsus maktablar, muruvvat uylari, mehribonlik uylari va hokazolardir.

Xalqaro qizil xoch va qizil yarim oy harakati – umumjahon insonparvarlik harakati. Asosan, qurolli to'qnashalarda jabrlanganlar, quruqlik va dengizdagi yarador va bemor harbiy xizmatchilar, harbiy mahbuslar, fuqaro aholiga yordam berish, shuningdek, harbiy

nizolar va boshqa(lar) favqulodda vaziyatlar oqibatida ajrashib qolgan hamda bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish vazifasini bajarib, betaraf vositachi sifatida insonparvarlik yordami ko'rsatadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy jarayon sifatida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortdi. 70-yillarda esa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish G'arb davlatlarida jiddiy masala sifatida siyosiy doiralarda muhokama qilina boshlandi.

Nodavlat va notijorat tashkilotlari — davlatga qarashli bo'lmagan, maqsadi foyda olish bo'lmagan ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat tashkilotlari hisoblanadi.

Umuman olganda nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy sohadagi faoliyat spektri juda kengdir. Nodavlat sektori tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rastilishi Daniyada 1976 yil "Ijtimoiy yordam akti" asosida amalga oshirila boshlagan va ushbu qonun asosida o'zining milliy qonunchiligi rivojlanib kelmoqda. 1992 yilda Daniyada yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasini ortib ketishi natijasida "O'nlik komiteti" tuzildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ishsizlikni kamaytirish, ijtimoiy sohaga nodavlat tashkilotlarini jalb qilish, ko'ngillilar harakatini rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishda fuqarolar faolligini oshirishdan iborat edi.[1]

Buyuk Britaniyada 1997 yilda davlat va NNTlarni o'zaro ijtimoiy sherikligi tamoyillari to'g'risida rasmiy hujjat qabu qilingan. Eng muhim jihatlardan biri NNTlar fuqarolarni jamiyat muamolarini hal qilishda jonbozlik va faollik ko'rsatishga o'rgatadi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya hukumati uchinchi sektorni ijtimoiy xizmatlarni amalga oshiruvchi sifatida asosiy qismini davlat budjetida moliyalashtira boshladi.

Buyuk Britaniyaning o'ziga xos xususiyatlari, aholini ijtimoiy himoya qilishda davlatning ustuvor vazifasini saqlab qolishda munitsipalitetlarning konservativ pozitsiyada bo'lishidir. Ijtimoiy sohada xususiy agentliklar ko'piroq o'ringa egalik qilishga intilsalarda, biroq munitsipalitetlar o'zining yetakchi sub'ekt sifatidan namoyon qiladi. Ushbu masalada nodavlat sektori munitsipalitetlarning eng yaqin va ishonchli hamkori sifatidan namoyon bo'ladi. Davlat nodavlat sektorini ijtimoiy xizmatlarni taklif qiluvchi tashkilot sifatida tan oladi. Shuning uchun ham nodavlat sektori ijtimoiy xizmatlar bozorida boshqa davlat organlari bilan bemaolol raqobat qila oladi. Davlat tomonidan ijtimoiy buyurtmalarni berilishi NNTlarning barqaror faoliyat olib borishiga katta moliyaviy yordam beradi.

Irlandiyada aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish standartlari qonunda qat'iy belgilab qo'yilgan. Nodavlat sektorini boshqarish modeli ham ushbu qonunlarga asoslanadi. Sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirliklari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

- aholini ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabini aniqlaydi;
- ijtimoiy xizmatlarni taklif qila oladigan davlat va nodavlat muassasalarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- ijtimoiy xizmatlar standartini belgilaydi;
- nodavlat sektori sub'ektlariga taqsimlaydi;
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsata oladigan muassasalar zahira bazasini shakllantiradi;
- ko'ngillilar faoliyatidan samarali foydalanishga imkon yaratib beradi.

Ijtimoiy xizmatlarni yetkazib berishni hukumat pullik va bepul asosda amalga oshiradi. Pullik xizmatlarni ko'piroq davlat ijtimoiy muassalari amalga oshiradi³². Aholiga pulsiz ijtimoiy xizmatlarni nodavlat sektori taklif etadi. Hukumat ijtimoiy xizmatlar uchun narhni o'zi belgilaydi. Narhlar rezidentning moddiy ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqadi.

Aholini ijtimoiy ta'minoti samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri keksalar potranaji hisoblanadi. Irlandiya ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan belgilangan qoidaga ko'ra, davlat muassalaridagi bitta menejerga 30 nafar keksalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishi lozim. Bu norma sifatida qabul qilingan. Nodavlat sektorida tartib qoida boshqacha yo'sinda yo'lga qo'yilgan bo'lib, NNTning bitta ijtimoiy xizmatchisi 30 dan ortiq fuqarolarga yoradm berishi mumkin. Bu uning vaqti va jismoniy imkoniyatlariga bog'liq.

Yuqorida zikr qilingan davlatlarda har qanday holatlarda ijtimoiy xizmatlarni aholiga yetkazib berilishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Ijtimoiy xizmatlar nodavlat sektori tomonidan taklif qilinishi turli "ijtimoiy tanlovlar"³³ asosida amalga oshiriladi.

Fransiyada 1980 yillarda nodavlat sektorini ijtimoiy xizmatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish siyosati prezident Fransua Mitteran davrida boshlangan edi. Natijada, 2012 yilga kelib nodavlat tashkilotlarning umumiy soni 1,3 mln. ga etdi. Shulardan 2000 tasi mustaqil jamg'armalar hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishda fuqarolar faolligi muhim jihatlardan hisoblanadi. Nodavlat sektori vakillari mamlakat aholisiga eng ko'p fan-ta'lim, sog'liqni saqlash, tadbirkorlikni rivojlantirish sohalarida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi.

AQSh, Kanada va Buyuk Britaniyada ijtimoiy xizmatlar sohasi alohida nodavlat tashkilotlarning individual, mustaqil faoliyati orqali, ya'ni bunda nomarkazlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Ammo, Skandinaviya va ba'zi Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi tamoyillari o'ziga xos modellar asosida ishlaydi.

G'arb ilmiy markazlari tomonidan nodavlat sektorida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tamoyillari va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish usullari va mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlar amalga oshirilmoqda.

Nodavlat sektorining ijtimoiy xizmatlar sohasidagi maqomi va ijtimoiy funksiyalari o'tish davrini boshidan kechirayotgan barcha jamiyatlardagi ro'y berayotgan ijtimoiy-

³² Gulom K. THE GENESIS OF THEORETICAL APPROACHES TO SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 2127-2131.

³³ Alimova C. et al. O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY SOHANING RIVOJLANISH JARAYONLARI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Periodical Collection 7. – C. 190-194.

siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar ko'pchilik olimlarning diqqat e'tiborini tortayotgani ham mavzuning dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi³⁴.

Zamonaviy bosqichda nodavlat sektorining funksiyalari, ijtimoiy yo'nalishlarini takomillashuvi bilan fuqarolik jamiyati to'g'risidagi tushunchalarni boyitib, tassavvurlarni kengaytirib yubormoqda.

Birinchidan, nodavlat sektori muayan manfaatlarni yaxshi bilish va o'rganish asosida ijtimoiy xizmatning yangi modellarini tashkil etuvchi, ularni amalda qo'llovchi tashkilotlardir, ya'ni davlatdan avval jamiyatda vujudga kelgan ehtiyojni payqaydigan va uni amalga oshirishning innovatsion modellarini taklif etuvchi tashkilotlardir.

Ikinchidan, nodavlat sektori sub'ektlari davlat ijtimoiy tizimidagi bo'sh yoki zaif bo'g'imlarni to'ldirib, o'z xizmatlarini taklif etadi. Ular faoliyatning shakllari xilma-xil bo'lib, rasmiy me'yorlar bilan cheklanmagan, moliyaviy mablag'larni turli manbalardan jalb etish dolzarb ijtimoiy muammolarni tezkor aniqlash va hal qilish imkoniyatiga egadir.

Uchinchidan, nodavlat sektori davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish faoliyatidagi faol va ishonchli sherik sifatida namoyon bo'lmoqda. Oxirigi yillarda ushbu tendensiya barqarorlashayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Ular alohida qatlamlarning manfaatini ifoda qilish bilan birga, muayyan qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish amaliyotiga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar.

To'rtinchidan, nodavlat sektori tomonidan jamiyatning ma'naviy asoslarini qo'llab-quvvatlash – bosh funksiya sifatida roli va ahamiyati ortmoqda. Davlat va xususiy sektorlar manfaatlari o'rtasida inson manfaatlarini barqaror va doimiy tarzda faqat nodavlat tashkilotlari ustuvor qo'yadi. Nodavlat tashkilotlari jamiyatning barcha a'zolarini birlashtiradilar, yordamga muhtojlarga ijtimoiy yordam ko'rsatadi.

Demak, nodavlat sektori zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida ular faoliyat turidan qat'iy nazar, o'z oldiga fuqarolar manfaatini himoya etish, jamiyatni birlashtirish, ma'naviy qadriyatlar va gumanizmni rivojlantirish singari vazifalarni qo'yadilar³⁵. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish nodavlat sektorining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

³⁴ Valiyeva S. et al. JAMIYATNING MA'NAVIY YANGILANISHIDA XOTIN QIZLARNING O'RNI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 10. – С. 50-54.

³⁵ Холмуродов Гулом, Алимова Чарос Бахтиёр қизи. Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашда давлатнинг роли. Analytical Journal of Education and Development. ISSN: 2181-2624. 2022.